

ZARDUSHTIYLIK KALENDARLARI

Xudarganov Husanboy

Urganch Davlat Universiteti

Ijtimoiy-Iqtisodiy fanlar fakulteti, Tarix yo'nalishi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15390784>

Annotatsiya. Ushbu maqola zardushtiylik diniy an'analari va amaliyotlarida muhim o'rin tutuvchi kalendarga bag'ishlangan. Zardushtiylik kalendari, asosan, qadimgi Fors imperiyasi va uning atrofidagi hududlarda tarqalgan zardushtiylik e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lib, turli diniy bayramlar va marosimlarning sanalari ushbu kalendarda aniq belgilangan.

Maqolada zardushtiylikning yilni hisoblash tizimi, asosiy bayramlar va muqaddas kunlarning ahamiyati, shuningdek, bu kalendarning zamonaviy zardushtiylar orasida qanday saqlanib kelayotgani tahlil qilinadi. Zardushtiylik kalendari, yirik tabiiy o'zgarishlar va uning ruhiy, diniy mazmuni bilan birga, zamonaviy dunyoda milliy va diniy meros sifatida qadrlanadi.

Аннотация. Эта статья посвящена календарю зороастризма, который играет важную роль в религиозных традициях и практиках зороастрийства. Зороастрийский календарь, в основном, связан с древней Персидской империей и регионами, где распространены зороастрийские верования, с точными датами для различных религиозных праздников и обрядов. В статье рассматриваются система учета времени в зороастризме, основные праздники и священные дни, а также то, как этот календарь сохраняется среди современных зороастрийцев. Зороастрийский календарь, в сочетании с его религиозным и духовным содержанием, по-прежнему ценится как важное национальное и религиозное наследие в современном мире. Статья представляет научный подход к достижениям зороастризма и его современному состоянию.

Abstract. This article is dedicated to the Zoroastrian calendar, which plays a significant role in the religious traditions and practices of Zoroastrianism. The Zoroastrian calendar is primarily associated with the ancient Persian Empire and regions where Zoroastrian beliefs are prevalent, with specific dates for various religious holidays and rituals. The article examines the time-keeping system in Zoroastrianism, the main holidays and sacred days, as well as how this calendar is preserved among modern Zoroastrians. The Zoroastrian calendar, along with its spiritual and religious content, continues to be valued as an important national and religious heritage in the modern world. The article presents a scholarly approach to the achievements of Zoroastrianism and its contemporary state.

Kalit so'zlar: Zardushtiylik, zardushtiylik kalendari, zardushtiylik bayramlari, zardushtiylik dinining sanalari, zardushtiylik marosimlari, zardushtiylik va tarix, zardushtiylik tizimi, dinlar tarixi.

KIRISH

Eron va O'rta Osiyo hududlarida zardushtiylik dini shakllangach, Navro'z bayrami bu dinga xos urf-odat va an'alar bilan boyidi, va u diniy bayram sifatida o'tkazilishi an'anaga aylandi. Zardushtiylikning diniy tizimi va an'analari bilan uyg'unlashgan kalendar yaratish ehtiyoji tug'ildi.

Shu sababli, zardushtiylikni ta'minlaydigan va uning falsafasiga mos keladigan kalendar tizimi ishlab chiqildi. Ushbu kalendarining oxirgi islohoti esa, Sosoniylar sulolasidan bo'lgan Yazdigird davrida amalga oshirildi va u "Yazdigard kalendari" deb nomlandi.[3]

Yazdigard kalendari, 365 kunlik quyosh kalendari bo'lib, shamsiya tizimiga asoslangan.

Bu kalendar 12 oyga bo'lingan bo'lib, har bir oyda 30 kun mavjud. Qolgan 5 kun esa hech bir oyga kirmaydi va ular yangi yil, ya'ni Navro'zdan oldingi davrga alohida ajratilgan.

Bu 5 kun davomida zardushtiylar ibodat qilishgan, tayyorgarlik ko'rishgan va Navro'z bayramini kutib olishgan.[3] Yazdigard kalendaridagi oy nomlari uning zardushtiylik diniy mafkurasiga qanchalik bog'liq ekanligini ko'rsatib beradi. Bu oylarning qadimiy Avestodagi va hozirgi nomlari haqida Xorazm kalendaridagi oy nomlariga oid ilmiy tadqiqotlar va professor-o'qituvchilarning ma'ruzalarida ham batafsil ma'lumotlar berilgan.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Zardushtiylik kalendarlari mavzusini o'rganishda bir qator ingliz tilidagi ilmiy manbalar muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, Mary Boyce'ning "Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices" asari Zardushtiylikning asosiy diniy tizimini tushunishda asosiy nazariy asos bo'ldi. Shuningdek Ilana Wartenbergning The Zoroastrian Persian Calendar in a Medieval Hebrew Treatise on The Jewish Calendar by Abraham maqolasidan zardushtiylikning to'liq kalendarlari haqida ma'lumotlar oldim. O'zbek tilidagi manbalar esa mavzuning Markaziy Osiyo tarixiy kontekstidagi o'rganilishiga yordam berdi. Jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, tarixiy davrlarga oid darsliklar va xalq ensiklopediyalarida berilgan qisqacha ma'lumotlar asosida regiondagi Zardushtiylik ta'siri tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Zardushtiylik kalendarlari ko'p bosqichli evolyutsiyani boshdan kechirgan bo'lib, u faqatgina diniy emas, balki siyosiy va madaniy omillar ta'sirida ham o'zgarib borgan..

NATIJA VA MULOHAZALAR

Zardushtiylik oylari ma'nosi

TUSHUNCHALA R	MAZMUNI
Fravashi (Farvardin)	butun mavjudotning ruhi-xudo Axuramazdaning sifatlaridan biri
Ashi Vaxishta	chinakam taqvodorlik
Xarvatot	butunlik va salomatlik xudosi
Tishtriya	Tir - (zardushtiylar Sirius yulduziga ham sig'inganlar)
Ameretot	abadiylik
Xshatra-varya	oliy hokimiyat
Mitra	yorug'lik, ahd va osmon xudosi
Apu (Ob)	suv xudosi
Odar (Ozar)	olov hudosi
Dotush	yaratuvchi
Vohu Manoh	yaxshi fikr
Spenti Omoti	taqvodorlik asosiy aqidalardan biri

Navro'z, 365 kunlik quyosh kalendari bo'yicha yangi yilning birinchi kuni sifatida keng bayram qilinadi. Ushbu kalendar, Malik Shoh (1072-1092 yillar) tomonidan joriy etilgan va uning oylari yulduz turkumlari nomi bilan atalganligi sababli, «burjiy» kalendar deb nomlangan.

O'rta Osiyo va Eron xalqlari tomonidan qabul qilingan bu kalendar, eng qadimiy yil hisoblaridan biri hisoblanadi.

Zardusht yil hisoblari quyosh yiliga asoslangan bo'lib, u 12 oydan iboratdir. Har bir oy 30 kundan tashkil topgan, yana qo'shimcha besh kun mavjud. Ushbu besh kun alohida bir oy sifatida hisoblanadi. Bu besh kun, sakkizinchi oydan keyin qo'yilgan, natijada to'qqizinchi oyning boshlanishi Navro'z bayramiga to'g'ri kelgan. Navro'z, nafaqat yangi yilni, balki yangi boshlanishni, yangilanishni va tabiatning jonlanishini ramzlaydi.

Malik Shohning «burjiy» kalendari, zardushtiylikning qadimiy urf-odatlarini va an'analari bilan uyg'unlashgan holda, o'zining tarixiy va madaniy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bu kalendar tizimi, nafaqat yangi yilning boshlanishini belgilab bermaydi, balki Navro'z bayramining ildizlariga chuqur bog'langan diniy va tabiatshunoslik an'analari bilan ham bevosita bog'liqdir.

Zardushtiy fors yilida jami 365 kun mavjud bo'lib, bu kunlar 30 kundan iborat 12 oyga va alohida tarzda ajratilgan besh qo'shimcha kunga bo'linadi. Ushbu besh kun "epagomenal kunlar", "kichik oy", ba'zida esa "o'g'irlangan besh kun" yoki "Gatha kunlari" deb ham ataladi.

Oylarning zamonaviy nomlari quyidagicha: Farvardin, Urdibihisht, Xurdod, Tir, Murodd, Shahrivar, Mihr, Obon, Azar, Dey, Bahman va Isfandormaz.[1]

Oylar hamda har bir oy ichidagi kunlar Zardushtiylikdagi ilohiy mavjudotlar nomi bilan atalgan bo'lsa-da, bu kalendarining joriy qilinishi ehtimol Zardushtiy ruhoniylar emas, balki Axomaniylar sulolasi hukmdorlari tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur fors yili tropik yildan taxminan $\frac{1}{4}$ kunga qisqaroq bo'lgani sababli, bayram sanalari har to'rt yilda bir kun atrofida mavsumlar bo'ylab siljiydi.

Zardushtiy fors kalendari qadimgi davrlarda mavjud bo'lgan yagona barqaror tizim — misrliklar kalendari asosida yaratilgan. Biroq bunda muhim farq shundaki, Zardushtiy kalendarining birinchi oyi — Farvardin, misrliklarning to'rtinchi oyi bo'lmish Xoyak/Axet oyiga to'g'ri keladi.[1]

Parsilarda uch xil kalendar tizimi mavjud: Qadimiy (Kadimi), Shohinshohiy (Shahenshahi) va Fasliy (Fasli). Bu kalendarlardagi farq asosan kabisa (qo'shimcha kun) kiritilishi yoki kiritilmasligiga bog'liq. Fasliy kalendarida har to'rt yilda bir kun qo'shiladi, shuning uchun u yulduzlar oralig'idagi Quyosh harakati bilan to'liq mos keladi. Biroq, u diniy marosimlar uchun ishlatilmaydi, bunga sabablar quyida tushuntiriladi.

Qadimiy kalendar Sossoniylar davridan meros bo'lib, unda kabisa kuni kiritilmagan.

Shohinshohiy kalendar esa Qadimiy kalendaridan bir oy orqada bo'lib, 1006-yildan keyin Hindistonda shakllangan va unda ham kabisa kuni yo'q.[2] Bu uch kalendaridan Qadimiy va Shohinshohiy kalendarlarga diniy marosimlarda ishlatiladi. Fasliy kalendar esa tabiat kalendari sifatida to'liq amaliy ahamiyatga ega, agar qonuniy asosda joriy qilinsa. Qolgan ikki kalendar esa mavsumlar va Quyosh harakati bilan mos kelmagani sababli, nisbatan "sun'iy" yoki tabiiylikdan yiroq bo'lib qolgan va Fasliy kalendariga nisbatan amaliy foydasi kamroq.

Zardushtiylikdagi falsafiy qarashlarga ko'ra, har bir kun osmonda hukmronlik qiluvchi ma'naviy kuch — Yazat tomonidan boshqariladi. Fasliy kalendarning har bir kuni aynan vakolatli (muqaddas) Yazatlarga to'g'ri kelgani bois, bu kunlarda osmondan olinadigan ruhiy ne'matlar (baraka) to'liq tarzda beriladi. Aksincha, Qadimiy va Shohinshohiy kalendardagi kunlar ikkinchi darajali Yazatlarga to'g'ri kelgani sababli, ular orqali olinadigan ruhiy baraka miqdori atigi uchdan bir qismini tashkil qiladi. Agar bir mo'min Fasliy kalendarga asoslanib, aynan o'sha kunga vakolatli Yazatga ibodat qilsa, u to'liq barakani olish imkoniga ega bo'ladi.

Boshqa ikki kalendar bo'yicha ibodat qilganlar esa faqat bir qism barakani olishadi. Bu holat Zardushtiy dinidagi Kshnumik falsafa orqali tushuntiriladi: unga ko'ra, Tabiat ishlarini boshqaruvchi 30 ta Yazat mavjud bo'lib, ularning har biri navbat bilan bir kunlik raislikni bajaradi. Ushbu kunning yuqorisi bo'lgan Yazat esa to'liq baraka berish huquqiga ega hisoblanadi.[2]

XULOSA

Zardushtiylik kalendarlari mazmunan chuqur diniy-falsafiy tamoyillarga asoslangan bo'lib, ular orqali vaqt tushunchasi nafaqat amaliy, balki ruhiy ma'noga ega bo'lgan. Ushbu kalendar tizimlari turli tarixiy sharoitlarda shakllanib, o'zgarishlarga uchragan bo'lsa-da, ularning har biri o'z davrining diniy ehtiyojlari va ijtimoiy talablari asosida yashab kelgan. Bu kalendarlardagi tafovutlar faqat vaqt hisobida emas, balki inson va ilohiy kuchlar o'rtasidagi munosabatni aks ettirishda ham muhim rol o'ynaydi. Zardushtiylikda vaqt — bu oddiy sanalardan iborat emas, balki muqaddas tartib va ilohiy muvozanat ifodasidir. Shu boisdan kalendarning o'zi ham diniy hayotning ajralmas bir qismi sifatida talqin qilinadi.

REFERENCES

1. The Zoroastrian Persian Calendar in a Medieval Hebrew Treatise on The Jewish Calendar by Abraham Ilana Wartenberg
2. "A SEQUEL TO ESSENTIALS OF ZOROASTRIANISM" – By Dr. Saheb Framroze S. Chiniwalla.
3. XRONOLOGIYA VA METROLOGIYA Abduvali Do'stov Qarshi "Nasaf" NMIU 2020
4. Mary Boyce "Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices.